**13 fevral kuni Gross Insurance ilovasi taqdimoti bo‘lib o‘tdi**




Taqdimot O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasibilan hamkorlikda WYNDHAM mehmonxonasida o‘tkazildi. Tadbirda shuningdek, diplomatik korpus, kompaniyaning eng yaxshi agentlari va yetakchi turistik firmalar ishtirok etdi.

Yordamchi mobil ilovasi - bu mijozlarga xizmat ko‘rsatishning yangi bosqichidir.

Ilova maqsadi - O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan yoki boshqa davlatlarga sayohat qilayotgan turistlarga ko‘rsatiladigan yordamni soddalashtirish va maqbullashtirish, barcha zarur xizmatlarning tartibga solingan faoliyatini tashkil etish, xizmatlarni yangi bosqichda ko‘rsatishdan iborat.

Eslatib o‘tamiz, Gross Insurance o‘z mijozlariga yordam ko‘rsatish tartibini soddalashtirish uchun ilovadan foydalanayotgan birinchi sug‘urta kompaniyasi bo‘ldi.

*21-02-2019*

